

O'ZBEK OPERA SAN'ATINING RIVOJLANISHI

*Jumasheva Elmira Tursinbayevna,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani
17-maktabning musiqa fani o'qituvchisi
@elmiras999gmail.com
+998-99-074-86-17*

Annotatsiya: O'zbekistonda opera janrining kirib kelishi va rivojlanishi, Mustaqillik davrida o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitilishi ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Opera, drama, musiqali teatr, orkestr, vokal, ariya, kompozitor.

Аннотация: Зарождение и развитие оперного жанра в Узбекистане, трактовка жанра, темы и содержания узбекских опер в период независимости получили дальнейшее расширение и обогащение.

Ключевые слова: Опера, драма, музыкальный театр, оркестр, вокал, ария, композитор.

Annotation: The entry and development of the opera genre in Uzbekistan, the interpretation of the genre, theme and content of Uzbek operas during the period of independence were further expanded and enriched.

Keywords: Opera, drama, musical theater, orchestra, vocal, aria, composer.

XVII asrga qadar uzoq davom etgan dunyoviy va cherkov musiqasi bilan chegaralanish jarayoni yakunlani, opera vujudga kelishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Opera – bu teatr, she'riyat, raqs va musiqani birlashtiruvchi sintetik janr. Uning badiiy ta'sir vositalari chegarasiz va shuning uchun ham u musiqa sohasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Opera ta'siri XVII va XVIII asrlar musiqa san'atining ko'plab sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Opera tufayli cholg'u musiqasining yangi janrlari vujudga keldi: uvertura, orkestr, balet suitasi va boshqalar. Shoirlar, musiqachilar va san'at ixlosmandlari birlashtirgan to'garakda (kamerata) mazkur san'at turi tamoyillari ishlab chiqilgan va asosiy qoidalari shakllantirilgan.

Operaning vatani Italiya bo'lib, opera paydo bo'lishidan avval, musiqa ijrochiligining rivojlangan dunyoviy shakllari, musiqiy-teatr pastoral janrining tarqalishi, qo'shiq janriga bo'lgan qiziqishining ortishi bilan tavsiflanuvchi XVI asr musiqiy hayoti hukm surgan. Opera san'atining dastlabki o'chog'i Florensiya hisoblanadi.

Opera — musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo'lib,

o'zida bir nechta san'at turlarini mujassam etadi; unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Operaning adabiy asosi — librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini o'zaro bog'lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli vokal ansambllarda qahramonlarning o'zaro munosabatlari, dramatik voqealar o'z aksini topadi. Xor ro'y berayotgan voqealarning izoxlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida halq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: Vokal shakllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qismlarda vaziyatning mazmunini ochib beradi, har bir sahnaning ruhiy holatini ifodalashga yordam beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab an'analari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.

30-yillarning II-yarmisidan boshlab birinchi o'zbek operalari vujudga kela boshladi. Bular S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning "Bo'ron" operasi bilan R.Gliyer va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun" operalari edi.

"Bo'ron" operasi besh pardali katta asar bo'lib uning mazmunida 1916 yilda Jizzaxda bo'lib o'tgan o'zbek xalqining chor hukumati bilan bo'lgan to'qnashuvlari o'z aksini topgan. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa ham lekin o'zbek xalqining ozodlikga chiqish uchun intilishlari asarda asosiy maqsad bo'lib qolgan.

Operaning qisqacha mazmuni. Boydan qarzdor bo'lgan Bo'ron ismli dehqon yerlarini tortib oladilar. Lekin shu vaqtda Bo'ron Jo'ra ismli o'g'lini Norgulga uylantirish kerak edi. Yon qoshnilar Bo'ronga moddiy yordam berib to'yni boshlaydilar. To'y avjida mahalliy amaldorlar kelib, o'zbek yigitlarini boshqa shaharlarga "Mardikorlikka" plib yubormoqchi bo'ladilar. Lekin amaldorlar o'z farzandlarini qoldirib, kambag'allar bolalarini yubormoqchi bo'ladilar. Dehqonlar qarshilik ko'rsatib o'nboshini o'ldiradilar. Bo'ron boshchilik etgan bir guruh toqqa chiqib ketadi. Ularga Jo'ra ham qo'shiladi. Podshoh tomonidan yuborilgan qo'shinlarqishloqda ancha qon to'kadilar va shular qatorida Norgul ham nobud bo'ladi. Bo'ronnin hovlisiga o't qo'yadilar. Shu vaqtda Bo'ron boshchiligidagi otryad qishloqqa kirib kelib podshoh qo'shnilarini quvib yuboradi.

Operaning qisqacha mazmunini (librettosini) Komil Yashin yozgan. Unda ikki tuzim qarama-qarsiligi, xalqlar orasidagi do'stlik aniq o'z ifodasini topgan. Operadagi asosiy qahramon bu xalq. Xalq Bo'ron boshchiligida podshoh tuzimig qarshi kurashadi.

Operada juda ko'p xalq qo'shiqlari "Gul o'yini", "Giry qozoq", "Chamanda gul", "Tanovar", "Oq oydin kechalar", "Farg'onacha"-lar kompozitorlar tomonidan

orkestrlashib asar mazmunini boyitishga sababchi bo'lganlar.

“Bo’ron” operasida Hamzaning “Ishchi bobo” , “Biz ishchimiz” , “Hoy ishchilar” qo’shiqlari ishlatilgan. “Bo’ron” da ariyalar uncha ko’p bo’lmasada lekin bor ariyalar obrazlari harakterlarini yoritishda salmoqli musiqiy asarlar jumlasiga kiradi.

S.Vasilenko bilan M.Ashrafiy bu operani olti oy davomida ijod qilib 1939 yilning 25-martida tugallaydilar. “Bo’ron” operasini sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklar ham bo’ladi. Birinchidan bu yangi janrni sahnada ijro etishda xonandalarga noqulayliklar tug’ilfi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga milliy o’zbek og’zaki an’analari bilan bo’g’liq bo’lgan saxnalar ham ijrochilarga va tinglovchilarga ham maroq bag’ishlar edi.

“Bo’ron” operasini sahnalashtirishi bu ikki (rus va o’zbek) orasidagi birodarlikni mustahkamlashda va ikki kompozitorlar S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo’ldi.

Opera 1939 yilda Toshkentda sahnalashtirilib o’zbek musiqali drama teatri O’zbek davlat opera va balet teatriga aylandi. Asosiy rollarni Halima Nosirova (Norgul), Karim Zokirov (Bo’ron), Fotima Boruxonova (Zebiniso) ijro etganlar.

O’zbek operasini dunyoga kelishi bu zamon talabi bo’lib respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblanadi.

“Bo’ron” operasi bilan bir qatorda G.M.Gliyer va T.Sodiqovlarning “Layli va Majnun” operasi ijod qilindi va bu asar A.Navoiyning shu nomli poemasi asosida edi.

Operaning qisqacha mazmuni. Layli ismli arab qabila boshlig’ining qizi Qays nomli yigitni sevadi. Layli qaysnin ishqiy she’rlariga, xotin – qizlarni e’zozlaydigan asarlariga mahliyo bo’lgan edi. Lekin shariat qoidalariga ko’ra Qays islom diniga xiyonat qilgan, chunki ayollarni erkaklar bilan tenglashtirgan. Ruhoniylar Qaysni-Majnun, ya’ni devona deb kamsitishadilar. Odamlarning diqqatiga tushib qolgan Qays Layli bilan bo’lgan muhabbatini oxirigacha yetishiga ishonch hosil qilmagach dashtu-saxrolarga yovvoyi xayvonlar orasiga chiqib ketadi. Layli esa otasining ixtiyori bilan badavlat kishi Ibn-Salomga turmushga chiqishi kerak bo’lganida sevgan yigiti Qaysni qumsab o’ladi. Uning qabri ustida Qays ham jon beradi. Ular motamlarini faqat yaqin qovmu-qarindoshlari tutadilar. Ikki sevishgan qabrida ikkita qizil gul unib chiqadikim, bu o’lmas sevgi va hamisha yoshlik timsoli edi.

“Layli va Majnun” operasida obrazlar ariyalarida o’zbek musiqa merosi – maqomlar, xalq kuy va qo’shiqlari asos bo’lib unda “Iroq”, “Segoh”, “Ushshoq”, “Chorzarb”, “Chorgoh”, “Bayot”, “Chavandozi gulyor”-lar ishlatilgan.

40-5- yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri sahnasida bir necha opera asarlari sahnalashtiriladi.

O’zbekistonda opera janri o’zbek mushkeli dramasi rivoji asosida, shuningdek, chet el mumtoz operasining ta’sirida yuzaga kelgan. 19-asrning oxiri

20-asr boshlarida Toshkentga bir nechta (guzin — 1894; 1907—15 yillarda — italyan, tatar, rus, ozarbayjon) opera gruppalari gastrolga kelgan. 1918-yildan Toshkentda Rus opera teatri o‘z faoliyatini boshlagan. 1929-yilda M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan o‘zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo‘lgan. Mazkur teatr sahnasida o‘zbek tilida qo‘yilgan birinchi operalar — "Er Targ‘in" (Ye. Brusilovskiy, 1937) va "Nargiz" (M. Magomaev, 1938) dir. O‘zbek opera va balet gruppasi O‘zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, 1939-yil S. Vasilenko va M. Ashrafiyning "Bo‘ron" Operasi bilan o‘z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o‘zbek operalari o‘zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O‘zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan.

Urushdan keyingi davrdan opera teatrining milliy repertuari ancha boyidi. Bu birdaniga bo‘lmagan, albatta. Davr boshida repertuarda qayta tahrir qilingan eski asarlar (S. Vasilenko va M. Ashrafiyning "Buyuk kanal", V. Uspenskiy va O. G. Mushelning "Farhod va Shirin", T. Jalilov va B. Brovtsinning "Tohir va Zuhra") ustunlik qilgan. Biroq 1958-yildan boshlab deyarli har yili teatr o‘z repertuariga yangi o‘zbek operalarni kiritdi. Shu davrda o‘zbek tilida jahon mumtoz opera namunalari (J. Bizening "Karmen", 1944; P. Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin", 1947 va boshqalar) ham sahnalashtirildi. Keyinchalik o‘zbek kompozitorlarining afsonaviy-romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo‘ldi: "Dilorom", "Shoir qalbi" (M. Ashrafiy), "Xamza" (S. Boboev), "Xorazm qo‘shig‘i" (M. Yusupov) va boshqa birinchi o‘zbek hajviy operasi "Maysaraning ishi" (S. Yudakov) bo‘lib, bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida qo‘yilgan. "Yoriltosh" (S. Boboev) birinchi o‘zbek bolalar operasidir.

1970—80 yillari o‘zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitishdi. Shu davr ichida tarixiy — "Mangulik" (U. Musaev), "Fidoyilar" (S. Boboev), zamonaviy — "Sadoqat" (R. Abdullaev), atoqli shaxslarga bag‘ishlangan — "Sug‘d elining qoploni" (I. Akbarov), "Zebuniso" (Sayfi Jalil), "Alisher Navoiy" (M. Burhonov), shuningdek, kamer operalar — "Sohilda to‘qnashuv" (N. Zokirov), "Ona qalbi" (Hab. Rahimov) va boshqa operalar sahnalashtirildi.

Mustaqillik davri o‘zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, boyitildi: Mazmunni talqin qilishda asosiy urg‘u milliy hamda umumbashariy ma‘naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Bu davrda o‘zbek kompozitorlari opera asarlarida o‘zbek xalq musiqasi merosi va milliy ijrochilik an‘analarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan uzviy bog‘lashga ahamiyat berdilar. Mavzu va badiiy saviyasi turlicha boyigan mazkur asarlar tomoshabinlar tomonidan ham turlicha qabul qilindi. Ba‘zilari sahnadan tezda tushib ketdi, boshqalari esa teatr repertuaridan muhim o‘rin egalladi.

Opera musiqiy dramaturgiyasining rivojlanish jarayonida, partitura kiritilgan ariyalar, duet, trio, kvartet, kvintet, vokal ansambllar, ommaviyxorlar, o‘rinli joyda jaranglaydi. Simfonik orkestr vokal nomerlarga birgina jo‘r bo‘lib qolmasdan, u ayrim epizodlarda, mustaqil ravishda muhim rol o‘ynaydi.

Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” birinchi hajviy operasi, jahonga mashhur boigan hajviy operalarni qatoridan munosib o‘rin oldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki mazkur operada ham opera “buffa”dagi kabi barcha tipik xususiyatlari to‘la - to‘kisdur. Ya’ni ohangdor ariyalar, vokal - ansambllar, ommaviy xorlar, ohangdor va “secco” (tez harakatda so‘zlash) rechitativlar orkestr sadolari bilan hamohang birlikda jonli va ildam sur‘atda sahnada sodir bo‘layotgan jiddiy va hajviy vaziyatlar, mukammal ravishda tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Istoriya uzbekskoy muziki. Tom. I,II. Toshkent. 1972, 1973.
2. T.Vizgo. Opera Kozlovkogo A. “Ulug‘bek” sbornik statey. Toshkent, 1961
Jabborov A. “Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida”,-T.:2000.
3. T.Ye.Solomonova “O‘zbek musiqasi” Toshkent, 1981
4. Pekker Yan., O‘zbekskaya opera, M., 1984;
5. Uzbekskaya opera. M. 1963
6. Murodova D., Mustaqillik davri O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyoti to‘g‘risida.